

373.378  
5-13

Onaxon Jabborova

**INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASI  
ASOSIDA BOSHLANG'ICH TAILIM  
MENEJRLARINI TAYYORLASH METODIKASI  
(MONOGRAFIYA)**



373. 378  
y-13

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TAYLIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Onaxon Jabborova

INDIVIDUAL YONDASHUV TEXNOLOGIYASI ASOSIDA  
BOSHLANG'ICH TA'LIM MENEJERLARINI TAYYORLASH  
METODIKASI  
(MONOGRAFIYA)

- 4465/378 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TAYLIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

Chirchiq – 2023

«Zelbo prints»

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TAYLIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**  
1-FILIALI

**Jabborova O. M. / Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasi / Monografiya. — Chirchiq: «Zebo prints», 2023. — 120 bet.**

Hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash ko'lamini bo'yicha kengayib bormoqda va bunda sifati ta'limga erishish asos bo'lmogda. Shu jihatdan mazkur monografiyada individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasining nazariyasi, uning metodologik asoslari va mexanizmlari masalalari tahlil qilib berilgan. Monografiyani tayyorlashda o'qitishning kredit-modul tizimi talablari hisobga olini va monografiya boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabarlari faoliyatidagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich, pedagogika fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

Xurvaliyeva Tarniza Latipovna, pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc)

Jumanova Fotima Uralovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dosent

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik Kengashi tomonidan 2023 yil 4 apreldagi 6-sonli majlisida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9635-1-1

© Jabborova O. M., 2023  
© «Zebo prints», 2023

**MUNDARIJA**

KIRISH	4
I BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi	5
1.1. Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni	5
1.2. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning nazariy xususiyatlari	15
1.3. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash zaruriyati	29
II BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodologiyasi	37
2.1. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning maxsus kurs metodikasi	37
2.2. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv texnologiyasi asosida tayyorlashning amaliy to'g'arak metodikasi	47
III BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash metodikasidan foydalanish mexanizmlari	59
3.1. O'quv fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mexanizmi	59
3.2. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mexanizmi	71
3.3. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim menejerlarini individual yondashuv asosida tayyorlashning Ustoz-shogird metodikasi	83
IV BOB. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli yo'nalishlari	92
4.1. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli nazariy yo'nalishlari	92
4.2. Boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlashning istiqbolli amaliy yo'nalishlari	100
Xulosa	105
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	107
Hovular	108

## Kirish

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida boshlang'ich ta'limda sifati samaradorlikka erishish maqsadlari belgilangan. Mazkur maqsadlarni amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim boshqaruvini ham yangicha asoslarda tashkil etish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'lim boshqaruvini qonunchilik va me'yoriy – huquqiy hujjatlarga asosan amalga oshirilsa mazkur ta'lim bosqichining sifati samaradorligi kuchayadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash yoki bo'ljak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'shimcha menejerlik klassifikatsiyasini berish muhim ahamiyatga ega. Chunki menejerlik – bu boshlang'ich ta'limni uning mazmuni, vazifalari hamda istiqbolli rivojlantirish asoslariga binoan nazariy, metodik hamda amaliy boshqaruvni ta'minlovchi kasbiy kompetensiyadir. Bugungi kunga qadar boshlang'ich ta'lim umumiy yo'nalishda umumiy o'rta ta'lim maktab pedagogik Kengashi va maktab direktori tomonidan boshqarilib kelimmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PF-134-son "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni bilan 2023 yil 1 yanvardan boshlab maktab menejerlari lavozimi joriy etildi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim menejerlarini ham tayyorlash mazkur Farmonning ijrosini ta'minlashda va boshlang'ich ta'limni sifat ko'rsatkichlarini yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotda ana shu masalalar batafsil tahlil qilingan.

Monografiyada individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi, metodikasi va mexanizmlari yoritildi.

Monografiyaga doir fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

## 1 BOLL. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang'ich ta'lim menejerlarini tayyorlash nazariyasi

### 1.1. Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni

O'zbekistonda oliy pedagogik ta'limni turli yondashuvlar asosida tashkil etish imkonligiga asosiy e'tibor qaratilmogda. Bundan maqsad Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida sifati ta'limga erishishdir. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasi mana shunday turli yondashuvlarning muhim shakllardan biri hisoblanadi. Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2023 yil 21 fevraldagi 01-17-son buyrug'i bilan individual yondashuv texnologiyasi universitet ilmiy-tadqiqot ishlarining strategiyasi sifatida belgilanadi. Shu jihatdan bu o'rinda e'tiboringizni *individual yondashuv texnologiyasi mazmuni* tahliliga tortamiz.

1. *Individual yondashuv texnologiyasiga yakka tartibda shug'ullanish xususiyati*. "Individual" tushunchasi lotincha bo'lib, yakka tartibda yolg'iz va maxsus shug'ullanish ma'noilarini bildiradi.<sup>1</sup> Aynan shu sababli individuallashtirilgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan o'quv va tadqiqot shakli bo'lib, unda har bir ta'lim oluvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etadi. Mana shu jihati bilan individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Chunki unda yakka tartibda shug'ullanish ta'lim oluvchilarni faollashtiradi, ta'lim beruvchilarning ustlabiy yondashuvini kuchaytiradi va ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv malakasi asosiy diqqat markazida bo'ladi.

Individual yondashuv texnologiyasining yolg'iz shug'ullanish xususiyati shundaki, unda bir ta'lim oluvchi bilan shug'ullanishda bir necha ta'lim beruvchi yoki ta'limni amalga oshiruvchi jamoa ishtirok etadi. Mana shu yolg'iz shug'ullanish shakli ta'lim oluvchilarning qiziqishlari, xohish-istaklari va kasbiy-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlashda muhim imkoniyatlarni beradi. Shu

sababli pedagogika tajribasida mana shunday yo'lg'iz tartibda shug'ullanish masalasiga alohida e'tibor berib kelimmoqda.

Individual yondashuv texnologiyasining yakka tartibda shug'ullanish xususiyatida shuningdek, maxsus yondashuv ham mavjud. Unga ko'ra, har bir ta'lim oluvchiga davlat ta'lim standartlari va malaka talablaridan kelib chiqib maxsus yondashiladi. Bunda asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning ta'lim va tarbiyaga doir huquqlarini jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan ro'yobga chiqarishdir.

Diqqat qilinsa, mazkur texnologiyaning mazmunini tashkil etuvchi yakka tartibda shug'ullanish xususiyati markazida ta'lim oluvchi turadi. Bu hol ta'lim oluvchining bilim va ko'nikmalarini kutilgan darajada tarkib topirish imkoniyatlarini beradi.

**2. Individual yondashuv texnologiyasining o'ziga xoslik xususiyati.** Mazkur texnologiyaning o'ziga xoslik xususiyati, ta'lim oluvchi bilan istalgan vaqtda va muddatsiz shug'ullanish bilan belgilanadi. Unda ta'lim oluvchining imkoniyatlaridan kelib chiqib nazariy, amaliy va metodik mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bunda mashg'ulotlarning shakli rang-barang bo'lishiga e'tibor qaralib, qaysi mashg'ulot shakli amaliy samara bersa, shu mashg'ulot turi tanlanadi.

Keyingi paytlarda jilimoiy murakkab sharoitlar sababli mamlakatimiz ta'lim tizimiga ta'limning masofaviy va onlayn shakllari joriy etila boshlandi. Ta'limning bu shakllari aslida individual yondashuv texnologiyasining asoslaridan hisoblanadi. Unga ko'ra, masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan kelib chiqib, butun mamlakat miqyosida har bir ta'lim oluvchi bilan individual shug'ullanish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Onlayn shakldagi ta'limda esa bevosita kompyuter, TV, radio kabi texnik vositalarning imkoniyatlariga tayangan holda ta'lim oluvchilar bilan virtual ta'limda shug'ullaniladi. Ta'limning bu shakllari qiziqarliligi va demokratik qadriyatlariga asoslanishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Individual yondashuv texnologiyasining o'ziga xoslik xususiyatida shuningdek, ta'lim beruvchilarning faol bo'lishi ham taqozo etiladi. Chunki ta'lim

beruvchilar o'quv materiallarini avvaldan va yangi ma'lumotlar asosida tayyorlashi, ularni ta'lim oluvchilarga o'z vaqtida yetkazishi hamda maxsus testlar vositasida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilib borishi muhim hisoblanadi. Shu sababli keyingi paytlarda darsliklarning elektron shakllariga va ularning imkoniyatlariga asosiy e'tibor qaralimmoqda.

E'tibor berilsa, individual yondashuv texnologiyasining o'ziga xoslik xususiyatlarida ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchilarning teng faol bo'lishi diqqat markazida bo'ladi. Bu hol pedagogik tajribalarda muhim omillardan biri sifatida hisobga olib kelimmoqda.

**3. Individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyati.** Individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyati unda pedagogik va psixologik metodlarning keng hamda uyg'un qo'llanishi bilan belgilanadi. Pedagogik metodlarning tushuntirish, izohlash, sharhlash va yo'naltirish kabi xususiy metodlari individual yondashuv texnologiyasining amaliylik jihatlarini belgilaydi. Psixologik metodlarning ishonirish, ruhiy ko'niktirish, murakkab holatlardan chiqib ketishga yo'naltirish kabi xususiy metodlari individual yondashuv texnologiyasining amaliy omillaridan hisoblanadi. Shu sababli individual yondashuv texnologiyasida amaliylik xususiyati mavjudligi mazkur texnologiyaning negizlaridan birini tashkil etadi.

Individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyatida ta'lim jarayonini pedagogik tashkil etish va boshqarish omillari ham mavjud. Bunda ta'lim va tarbiya jarayoni pedagogik qonuniyatlar asosida tashkil etiladi va bu jarayon ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida boshqarib boriladi. Shu jihatdan individual yondashuv texnologiyasida amaliylik muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

E'tibor berilsa, individual yondashuv texnologiyasining amaliylik xususiyatlari mazkur ta'lim shaklining pedagogik tajribalarda muhim o'rin tutishini belgilaydi.

Individual yondashuv texnologiyasi bo'yicha milliy pedagogikamiz tarixida har bir ta'lim oluvchi bilan maxsus shug'ullanish va ta'lim oluvchilarning sonini 5